«TASDIQLAYMAN»
**Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari**
**_______ Sh.Umidov**
**"05" yanvar 2022- yil**

**Toshkent shahar statistika boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida bo'lib o'tgan seminar yig'ilishi**

**BAYONI №1**

2022- yil 5-yanvar Toshkent sh.

| | |
|---|---|
| **Seminar raisi:** | Sh.Umidov – boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari |
| **Qatnashganlar:** | I. Shermatov – Boshqarma boshlig'i o'rinbosari, Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish idoraviy komissiyasi a'zolari, tarmoq bo'limlari va tuman statistika bo'lim boshliqlari |

**KUN TARTIBI:**

**O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6257-son Farmonining mazmun mohiyati tushuntirish.**

*(Sh.Umidov, I.Shermatov, Sh.Shaagzamova, Sh.Karimova, M.Usmonov, B.Shakarov, Sh.Umidov)*

Seminar yig'ilishida, boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari Sh.Umidov O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6257-son Farmonining mazmun mohiyatini boshqarma tarmoq bo'limlari va tuman statistika bo'limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o'tdi.

Mazkur farmonda, davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilayotganligi hamda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilayotganligini, jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilganligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, mazkur farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligini, agentlikning vazifasi etib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanishini, o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirishini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunishini va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdor ekanligini qayd etdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish maqsadida mazkur farmon qabul qilinganligi qayd etildi.

Shu bilan birga, idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanishi ta'kidlandi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-

sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6257-son Farmonining jrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Shuningdek, boshqarmaning rasmiy veb-sayti www.toshstat.uz.da ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari miqdori yildan-yilga ortib borayotgani hamda boshqarmaning rasmiy veb-saytiga Toshkent shahri bo'yicha oylik, choraklik va yillik tahliliy statistik ochiq ma'lumotlar joylashtirib borilishi ta'kidlab o'tildi.

Bundan tashqari, joylarda tashkil qilinayotgan profilaktika ishlarini tashkil qilishda yuqoridagi chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlarni qat'iy amalga oshirishlari, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini yangi tashkil topgan hamda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bunda joylardagi seminar uchrashuvlar va "Ochiq eshiklar kuni"da tadbirkorlik sub'ektlariga davlat statistika hisobotlarini internet tizimi orqali elektron shaklda qabul qilish tizimining qulayliklari va afzalliklari, jumladan hisobotlarni qat'iy ravishda belgilangan muddatlarda elektron shaklda taqdim etishlari lozimligi to'g'risida doimiy ravishda tushuntirishlar berib borishlari yuzasidan topshiriqlar berib o'tildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6257-son Farmonining ijrosi o'z vaqtida ta'minlansin.

2. Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi idoraviy komissiyasi a'zolari, tarmoq va tuman statistika bo'limlari boshliqlariga:

-Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo'limlarida 2021-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar kiritilsin;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan bu borada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rgan holda, mansab vakolatlarini suiste'mol qilib, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qat'iy jazo choralarini ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilsin;

- boshqarma va tuman statistika bo'limlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Odob-axloq qoidalari"ga amal qilgan holda o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari yuzasidan mas'uliyatlarini yanada oshirsinlar.

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda axborotdan foydalanuvchilarning so'rovlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida ko'rib chiqilishini, murojaatlarning tahlil etilishi va bu borada faoliyat natijalarini muhokama etib borilishini ta'minlab, ushbu masalalarga mas'ul rahbar va xodimlar faoliyati yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar;

- boshqarma va tuman statistika bo'limlarida tadbirkorlik sub'ektlari bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini keng qamrovda va tizimli asosda tashkil etilishini ta'minlab, bunda asosiy e'tiborni tadbirkorlik sub'ektlari uchun yaratilgan qulayliklar, ularning huquqlari va majburiyatlari, hisobot taqdim etish tartiblari va muddatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borilishiga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishiga va ularning profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratsinlar hamda bu borada sustkashlikka yo'l qo'ygan rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat'iy intizomiy jazo choralarini ko'rilishi yuzasidan ogohlantirilsin;

- davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy ishlarni yuritishda amaldagi qonun hujjatlariga to'liq rioya etilishini ta'minlab, bu borada asosiy e'tiborni Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy amaliyotni

qo'llashni O'zbekiston Respublikasining 2016- yil 29 -dekabrdagi O'RQ-418-son qonuni talablari asosida yuritilishiga qaratsinlar;

- tadbirkorlik sub'ektlariga ularning huquqlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish bo'yicha ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda muntazam maqolalar chop etib borish, televideniye va radio vositalari hamda rasmiy saytlar orqali chiqishlar tashkil etish, bunda ayniqsa elektron shaklda hisobotlarni taqdim etish tizimining afzalliklari va qulayliklari to'g'risida keng ko'lamda yoritib borilishi ta'minlansin;

- boshqarmaning rasmiy veb-saytining uzluksiz faoliyatini ta'minlash va takomillashtirib borish hamda ulardagi ma'lumotlarni muntazam yangilab va to'ldirib borilishini ta'minlash, shuningdek Davlat statistika organlari faoliyatini ochiqligini yoritib beruvchi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish, shu bilan birga Davlat statistika qo'mitasi va boshqarma tomonidan berilgan topshiriqlarning tizim organlarida ijro etilishi holatini muntazam ravishda o'rganilsin;

- 3. Boshqarmaning bosh yuriskonsulti (M.Usmonov)ga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat farmon va qarorlari, Davlat statistika qo'mitasi qaror va buyruqlari, shahar hokimligining qaror va farmoyishlarini har biri bo'yicha alohida yozma ma'lumotlar tayyorlash va boshqarma hamda tuman statistika bo'limlarining barcha xodimlarini doimiy tanishtirilishi ta'minlansin;

Har chorak yakuni bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jarimalarni. O'zbekiston Respublikasi MJtK talablari asosida to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan o'z tavsiyalari berib borilsin.

4. Ushbu seminar qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi Sh.Shaagzamova

**Тошкент шаҳар статистика бошқармасида 2022 йил 5 январь куни коррупцияга қарши курашиш мавзусида бўлиб ўтган йиғилишда қатнашганлар рўйхати**

| № | Лавозим номи | Ф.И.О. | Имзо |
|---|---|---|---|
| | **Статистика фаолиятини ташкил этиш ва йиғма ахборот-таҳлилий ишлар бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Шаагзамова Ш.Ш. | |
| | **Саноат статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Авлиякулова Р.А. | |
| | **Инвестиция ва қурилиш статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Рустамов Д.А. | |
| | **Ишбилармонлик муҳити кузатувлари, тадбиркорликни ривожлантириш статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | вакант | |
| | **Ташқи иқтисодий фаолият ва савдо статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Амонкулов Б | |
| | **Нарх статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Пашшаева М.М. | |
| | **Статистик регистрларни юритиш бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Мустофоев Ж.Х. | |
| | **Демография ва меҳнат статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ в.б. | ~~Бекназаров Н.Р.~~ Сатторова Д. (Ахмедова Д.Р. Ишга чиққунига қадар) | |
| | **Турмуш даражаси статистикаси ва уй хўжаликлари кузатувлари бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Джалилова М.А. | |
| | **Хизматлар соҳаси статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ в.б. | Исламов М.М. | |
| | **Ижтимоий соҳа статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Умарходжаева О.С. | |
| | **Қишлоқ хўжалиги ва экология статистикаси бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ в.б. | Нурматов Р.П. | |
| | **Кадрлар бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Каримова Ш.А. | |
| | **Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ишлар бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ - бош бухгалтер | Бозоров Р.С. | |
| | **Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш ва ижро интизоми назорати бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Жураев У.Б. | |
| | **Махсус қисм** | | |
| 1 | Бош мутахассис | Муллаянова Р.Х. | |
| | **Ахборот хизмати** | | |
| 1 | Етакчи мутахассис | Хужаева Ф.К. *(Муродова Н.К. декрет)* | |
| | **Рўйхатга олиш жараёнларини ташкил этиш ва ўтказиш бўлими** | | |
| 1 | Бошлиқ | Боймуродов Б.З. | |
| | **Дастурий-техник таъминот ва маълумотларни сақлаш маркази** | | |
| 1 | Бошлиқ | Шакаров Б.Б. | |

| № | Лавозим номи | Ф.И.О. |
|---|---|---|
| | **Бектемир тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Турсинбаев Э.У. |
| 2 | Бош мутахассис | Муродов О.Р. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Муминова Д.М. |
| | **Мирзо Улуғбек тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Номозов А.Э. |
| 2 | Бош мутахассис | Қахрамонов Р.Ў. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Хайдаралиев Ш.Н. |
| 4 | Етакчи мутахассис | **вакант** |
| | **Миробод тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Ахмедов Ж.О. |
| 2 | Бош мутахассис | **вакант** |
| 3 | Етакчи мутахассис | Зарипов Ж. |
| | **Олмазор тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Анназаров С.А. |
| 2 | Бош мутахассис | Камаретдинова Х.Н. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Саматов Ж.Ш. |
| | **Сергели тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Бакаев Ў.Т. |
| 2 | Бош мутахассис | Шадиев С.Х. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Мухамедова М.С. |
| | **Учтепа тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлиқ в.б. | Каримов У.Р. |
| 2 | Бош мутахассис | Бойкобилов О.Ж. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Раджабова М.Ю. |
| | **Чилонзор тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Рахматов А.С. |
| 2 | Бош мутахассис | Ўктамов Ш.А. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Кукарева Н.М. |
| 4 | Етакчи мутахассис | Рузиева А.А. |
| | **Шайхонтохур тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Холиков Б. |
| 2 | Бош мутахассис | **вакант** |
| 3 | Етакчи мутахассис | Касимова Д.Р. *(Мирзахмедова Л.)* |
| 4 | Етакчи мутахассис | Тулаганов Ж.И. |
| | **Юнусобод тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик в.б. | Бобоназаров Ҳ.У. |
| 2 | Бош мутахассис | Махмадияров Ш. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Абдувалиева Н.И. *(С.Умаржонова)* |
| 4 | Етакчи мутахассис | Эшматов Х.М. |
| | **Яккасарой тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Мейлиев Б.А |
| 2 | Бош мутахассис | Самандаров Ж.Ш. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Мавлянова З.М. |
| | **Яшнобод тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик ~~в.б.~~ | Норкулов Ш.Ш. |
| 2 | Бош мутахассис | **вакант** |
| 3 | Етакчи мутахассис | Бекназаров С. Ю. |
| | **Яшнобод тумани аҳолини рўйхатга олиш бўлими** | |
| 1 | Бошлик в.б. | Валиев С.И. |
| 2 | Бошлик ўринбосари | **вакант** |
| 3 | Бош мутахассис | Ўрозов С. |
| | **Янгиҳаёт тумани статистика бўлими** | |
| 1 | Бошлик | Маматов А.Ю. |
| 2 | Бош мутахассис | Ачилова К.Э. |
| 3 | Етакчи мутахассис | Рустамшаева М.К. |